

Stomatologik protseduralardan keyingi muolajalar

Bugun bolangizga stomatologik muolaja qilindi. Ushbu yo'riqlar sizga uyg'a kelganingizdan keyin bolaga qarovni amalga oshirishingizda yordam beradi.

Og'riq, behuzurlik yoki isitma kuzatilganda ko'rildigan choralar

Farzandingizda quyidagilar kuzatilishi mumkin:

- Past darajada isitma chiqishi (102 darajadan past)
- Nafas olishga yordam beradigan naychadan tomoq og'rishi
- Stomatologik muolajadan keyin behuzurlik his etish

Og'riq va isitmani kamaytirish uchun har uch soatda navbat bilan Tylenol

(atsetaminofen(acetaminophen)) va Motrin (ibuprofen) almashlab qo'llang. (Masalan, avval Tylenol bering, uch soatdan keyin Motrin bering, uch soatdan keyin yana Tylenol bering va shunday davom eting.)

- Agar ikkalasini almashlab bermasangiz, Tylenol yoki Motrinning o'zini o'ramidagi yo'riqlarga muvofiq berishingiz kerak.
- Uyda Tylenol va Motrin berishdan oldin, ushbu dorilarni berish mumkin yoki mumkin emasligini bilish uchun shifokor bergen kasalxonada yotgan haqidagi hujjatga (vipiska) qarang. Farzandingiz Tylenol yoki Motrinni kasalxonada yotgan vaqtidayoq qabul qilishni boshlagan bo'lishi mumkin.
- Agar bolangizga Tylenol yoki Motrindan qancha dozada berish kerakligi haqida savollaringiz bo'lsa yoki bolangizga ikki yoki uch kundan ko'p vaqt davomida og'riqni pasaytirish choralarini talab qilinsa, tibbiy provayderingizga murojaat qiling.

Muolajadan keyin bolangiz tishlamining o'zgarganligini his qilishi mumkin. Bolangizning tishlami bir-ikki hafta ichida yana o'zining normal holatiga qaytishi kerak.

Yeyish va ichich

- Ko'proq shaffof suyuqliklar (olma sharbati, tovuq sho'rva, muzlatilgan meva shrabatidan tayyorlangan muzqaymoq, Jell-O jelesi) iching
- Narkoz bilan qilingan muolajadan keyin quşish (qaytarish) sodir bo'lishi mumkin. Agar bolangiz juda ko'p yoki uzoq vaqt qaytarsa, bolangizning tibbiy provayderiga murojaat qiling.
- Tishlarga ftorid to'liq jipslashishi uchun muolajadan keyin ikki soat davomida bolaga issiq va maydalangan ovqatlar bermang.

Tishni cho'tkada yuvish va ip bilan tozalash

Muolajadan keyingi kuni ertalab tishni cho'tkada yuvish va ip bilan tozalashni odatdagidek bajaraverishingiz mumkin.

- Kuniga ikki marta cho'tkada, bir marta ip bilan tishlarni tozalang.
- Tish ko'rrib olingan (tishlar olib tashlanganda) joylarni yuvishda muloyim harakat qiling.
- Cho'tkada yuvganda, oq va kumush tish qopqoqlarini oddiy tishlar singari yuving.

Muolajadan keyin bolangizning tishlariga qo'yilgan florid ularni yopishqoq, xira yoki iflos ko'rinishga olib kelishi mumkin.

Zanglamaydigan po'latdan yasalgan tojlar (kumush qopqoqlar)

Kumush qalpoqchalar asosan tishlarga yopishtiriladi. Yeyish va ichich punktida ko'rsatilgan qoidalariga qat'iy amal qiling!

- Agar tish qopqog'i joyi chiqib ketsa, darhol tish shifokoringiza murojaat qiling. Stomatolog shifokor bolangizni ko'rishi kerak bo'ladi.
- Tegishli yoshda qopqoqlar va tishlar bir bo'lak bo'lib tushadi.
- Mevali yeguliklar va saqich kabi yopishqoq ovqatlardan saqlaning, bu tishlarning qopqoqlarini chiqib ketishiga olib kelishi mumkin.

Poloska yoki sirkoniya tojlari (oq qopqoqlar)

Oq qopqoqlar juda mo'rt bo'ladi. Yeyish va ichich punktida ko'rsatilgan qoidalariga qat'iy amal qiling!

- Tegishli yoshda qopqoqlar va tishlar bir bo'lak bo'lib tushadi.
- Sabzi va olma kabi qattiq oziq-ovqatlarni mayda bo'laklarga bo'ling. Kichik bo'laklarni orqa tishlar bilan chaynang.

Joyidan ko'chirib tashlash (tishlarni olib tashlash)

Agar og'riqsizlantiruvchi (muzlatuvchi) dori vositasi qo'llansa, muolajadan keyin uning ta'siri 2 soat yoki undan ko'proq davom etishi mumkin.

- Og'riqsizlantiruvchi vosita qo'llanganda, farzandingiz lablarini, yonoqlarini yoki tilini his qila olmaydi.
- Og'riqsizlantiruvchi vosita qo'llanganda, ba'zi bolalar tishlashi, chimchilashi, o'ziga tortishi, so'rishi, ishqalashi yoki yuzini tirnashi mumkin. Bu jiddiy zarar yetkazishi mumkin.
- Bolangizning qo'llarini yuzidan uzoqroq tuting.
- Farzandingizga yonoqlarini yoki lablarini chaynamaslik yoki so'rmaslik kerakligini eslatib turing.

Ba'zida qon ketishini to'xtatish uchun tish uyasiga to'suvchi material joylashtiriladi. Ushbu material bir-ikki hafta ichida o'zi tushib ketadi yoki parchalanib (erib) yo'q bo'lib ketadi.

Agar chok qo'yilgan bo'lsa, ular bir-ikki hafta ichida o'z-o'zidan parchalanib ketadi. Agar bolangizda boshqa turdag'i chocklar qo'yilgan bo'lsa, tibbiy provayderingiz bu haqida sizga aytadi.

Tishni olib tashlagandan keyin bir hafta davomida suyuqlikni naycha bilan ichmang yoki qattiq tupurmang. Bu tuzalayotgan joyining qonashiga olib kelishi mumkin.

Bir necha kun davomida o'tkir ta'mli, sho'r, nordon ovqatlardan saqlaning. Bu sog'ayayotgan milklarga behuzurlik tug'dirishi mumkin.

Bir necha kun davomida chips, popcorn yoki yeryong'oq kabi ko'p mayda bo'laklarga bo'linadigan mayda oziq-ovqatdan saqlaning. Ovqat tish uyalariga yopishib qolishi mumkin va natijada bu muammoga olib kelishi mumkin.

Qonaganda nima qilish kerak

Tishlar olib tashlanganidan keyin qonashi yoki qon oqishi normal holat. Tupik pushti ko'rinish olishi mumkin yoki bola metall ta'mi kelayotganidan shikoyat qilishi mumkin.

To'xtamaydigan yoki to'q qizil rangdagi qon kuzatilsa, buni kamaytirish kerak.

Qon ketishni kamaytirish uchun bolangizga yordam bering:

- Bola 20 daqiqa davomida nam doka yoki ho'l ro'molchani mahkam tishlasin.
- Agar bu yordam bermasa, bola nam choy xaltachasini mahkam tishlasin.
- Agar qon 20 daqiqadan keyin to'xtamasa, tish shifokoringizga murojaat qiling.

Kelgusi ko'riklar

Bolangizning stomatologgi sizga keyingi ko'riklar zarurmi yoki yo'qligini va qachon bo'lishini aytadi.

Har 6 oyda bir marta tish shifokoriga muntazam tashrif buyurishni rejalashtiring.

Agar siz Cincinnati Children's bolalar kasalxonasi Bolalar stomatologik klinikasida (Pediatric Dental Clinic) muntazam stomatologik yordam olishni davom ettirmoqchi bo'lsangiz, rejalashtirish markaziga (Scheduling Center) (513) 636-4641 raqamiga qo'ng'iroq qiling.

5/2023 sanada doktor Scott Schwartz tomonidan tahrir qilingan